O‘QITUVCHILARNING KASBIY-MA’NAVIY QADRIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA ZAMONAVIY TURIZMNING RAQAMLASHTIRILGAN SHAKLI

Almamatova Movluda Rustam qizi - Guliston davlat pedagogika instituti tahririyat muharriri.

Islamova Durdonaxon Rustamxon qizi - Guliston davlat pedagogika instituti magistranti.

Annotatsiya. Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy-ma’naviy qadriyatlar asosida tayyorlashda zamonaviy turizmning raqamlashrilgan shakli haqida so‘z boradi. Har tomonlama kamol topgan o‘qituvchini kasbiy-ma’naviy qadriyatlar asosida tarbiyalash, zamonaviy raqamli texnologiyalardan erkin foydalanishni o‘rgatish, turizmni rivojlantirishda ularning ahamiyati yoritilgan. Uzluksiz ta’limda raqamli texnologiyalarni takomillashtirish har bir o‘qtuvchidan kasbiy mahorat talab etadi. Buning uchun o‘qituvchi o‘z ustida tinimsiz ishlashi, kasbiy- ma’naviy qadriyatlarni takomillashtirishi va zamonaviy raqamli texnologiyalar orqali hayotda yangiliklar tadbiq etishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: o‘qituvchi, kasbiy-ma’naviy qadriyat, turizm, zamonaviy raqamli texnologiyalar, uzluksiz ta’lim, kasbiy mahorat;

“Jamiyatda o‘qituvchi kasbi eng nufuzli va obro‘li kasb bo‘lishi lozim”
Shavkat Mirziyoyev

Dunyoda kasblar ko‘p, lekin o‘qituvchilik kasbi barchasidan a’lodir. O‘qituvchi yonib turgan sham misolidir. U o‘zi yonishi bilan birga chor-atrofga nur-ziyo taratadi. Barcha kasblarni ham avvalo o‘qituvchi-muallim o‘rgatadi. O‘qituvchi ilm o‘rgatuvchi, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi, tarbiyalovchi muallimdir. O‘qituvchi qancha kuchli bo‘lsa, undan ta’lim-tarbiya olayotgan yoshlar shuncha barkamol bo‘ladi.

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasida[6] “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash, oliy ta’lim muassasalarida yuqori kompetentli ilmiy pedagogik kadrlar zahirasini yaratish” vazifasi belgilandi [1]. Har tomonlama yuksak bilim va saviyali, sog‘lom avlodni o‘stirishda o‘qituvchilar muhim o‘ringa ega. Kelajak avlodni ma’naviy va ma’rifiy jihatdan yetuk va barkamol, yurt ertasini o‘ylaydigan sodiq farzandlar qilib tarbiyalashda o‘qituvchining o‘rni beqiyosdir. Buning uchun o‘qituvchi quyidagi bilim va ko‘kinmalarga ega bo‘lishi lozim:

• kasbiy bilimlarni puxta bilish bilan birga, turli bilimlardan xabardor bo‘lishi;

[6] *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07.02.2017 yildagi PF-4947-son “O‘zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi farmoni*

• yosh pedagogik psixologiya, pedagogika va psixologiya, yoshlar fiziologiyasi, tarbiyaviy ish metodikasi, maktab gigienasidan o‘z kasbiga oid bilimlarni mukammal bilishi;

• o‘z kasbi bo‘yicha jahon fanida erishilayotgan so‘nggi yutuqlar, tarbiya texnologiyasi, kompyuter va axborot texnologiyalari, yangiliklaridan doimiy xabardor bo‘lib borishi;

• ta'lim-tarbiya metodikasidan ko‘nikma va malakalarini oshirib borishi;

• o‘z kasbiga ijodiy yondashishi;

• pedagogik texnika (mantiq, nutq ta'limining ifodali vositalari) va pedagogik taktga ega bo‘lishi;

• o‘z bilimi va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi [4].

Shuning uchun ham respublikamiz birinchi Prezidenti I.A.Karimov “Tarbiyachi-ustoz bo‘lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o‘stirish, ma'rifiy ziyosidan bahramand etish, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun eng avvalo tarbiyachining o‘zi aynan shunday yuksak talablarga javob berishi lozim,”[3]- degan edi. Darhaqiqat, davr talabidan kelib chiqqan holda, o‘qituvchi raqamli texnologiyalarni yaxshi bilishi va o‘z faoliyati jarayonida qo‘llay olishi zarur. O‘qituvchilik kasbida chuqur bilimdonlik, zukkolik o‘z kasb mahoratini muntazam shakllantirib borishga ishtiyoq bo‘lmas ekan, u yaxshi ustoz-o‘qituvchi bo‘la olmaydi. Zero, davlatimizning istiqboli, Prezidentimiz tomonidan olg‘a surilayotgan barcha islohotlarning ijobiy yechimi va ana shu ko‘p mingyillik ziyokorlik ishining samarasi bo‘ldi.

Yoshlar dunyoqarashida milliy- ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlashdan ko‘zlangan maqsad ularni faqat o‘z qadriyatlariga tayanib yashashga o‘rgatish emas, balki shu umumbashariy qadriyatlarni ham o‘zlashtirib, mamlakatning o‘ziga hos taraqqiyoti unga bog‘liqligini hisobga olib yashashga, ishlashga da'vat etishdir.

Bundan tashqari, milliy-ma'naviy qadriyatlarni chuqur bilish yoshlar tomonidan mustaqillikni asrab-avaylash, himoya qilish va mustahkamlashga o‘zining ijobiy ta'sirini ko‘rsatadi. Zero Abdulla Avloniy aytganidek: “Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot- yo halokat, yo saodat- yo falokat masalasidir”.

O‘qituvchilik kasbi yuksak sharafli kasbdir. Bu kasb hech bir kasbga o‘xshamaydi. Taniqli rus pedagogi A.S.Makarenko o‘qituvchilik kasbiga juda yuqori baho berib, unga shunday ta'rif beradi: “Tarbiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq yoki jahldor bo‘lishni bilishi lozim, u o‘zini shunday tutishi kerakki, uning har bir harakati, yurish-turishi, kiyinishi bolalarni tarbiyalasin”. Bu ta'rifdan shunday xulosaga kelish mumkinki, pedagog har tomonlama mukammal, o‘quvchilar uchun ideal shaxs bo‘lishi lozim [5].

Bugungi global davrda o‘qituvchi raqamli texnologiyalarni juda yaxshi bilishi talab etiladi. Hayotimizning har jabhasida raqamli texnilogiyalarga duch kelamiz va ulardan foydalanamiz. Misol uchun, sayohat vaqtida ham. Turizm bu sayohat demakdir. *Fransuz yozuvchisi va adabiy tanqidchisi* Anatol Frans shunday degan edi: “Sayohat nima bo‘lishidan qat'iy nazar, har qanday jihatdan ko‘proq narsa o‘rgatadi. Ba'zida boshqa joyda o‘tkazilgan bir kun, uyda o‘tkazilgan o‘n yildan ko‘proq narsa beradi”. Turizm iqtisodiyotining eng yirik tarmoqlaridan biridir. Bu korxona uchun ham, butun mamlakat uchun ham juda katta daromad. Dunyoning

ko'pgina mamlakatlarida turizm ma'lum bir mamlakat va uning xalqining tarixi, madaniyati, urf-odatlari, ma'naviy va diniy qadriyatlari bilan tanishish uchun barcha imkoniyatlarni yaratib beradigan, aholiga va g'aznaga daromad keltiruvchi tizim sifatida rivojlanmoqda [6]. Turizm jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish insonlarga yanada qulaylik yaratadi. Raqamli texnologiyalar hayotimizga shunchalik singib ketdiki, bugungi kunda nafaqat kundalik faoliyatimiz, balki ijtimoiy-iqtisodiy sohalar rivojini ham ularsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Tabiiyki, boshqa sohalarda bo'lgani singari raqamli texnologiyalardan turizmni rivojlantirishda qo'llamoqdamiz. Yurtimizda olib borilayotgan "O'zbekiston–2030" strategiyasiga[7] [2] muvofiq amalga oshirilayotgan ishlar zamirida ham raqamli texnologiyarni yanada rivojlantirish masalasi qo'yilgan. Ma'lumki, bu strategiyada mamlakatimizni mintaqaviy "IT-HUB"ga aylantirish maqsadi belgilangan. Bu davlat boshqaruvi va sohalarni raqamlashtirish, aloqa infratuzilmasini yaxshilash, IT ta'limni rivojlantirish kabi ko'p omillarni talab etadi.

Talabalarga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan pedagogik metod va vositalar o'qituvchilar tomonidan kam qo'llaniladi. Bunday holatlar talabalarning faol ijtimoiy nuqtai nazarga ega bo'lmasliklariga va ijtimoiy-madaniy pedagogik omillarning yetarlicha egallamasliklariga sabab bo'lmoqda.

Talabalarning o'z mavqelarini aniqlash, imkoniyatlarini namoyon etish, faoliyatlarini takomillashtirishga bo'lgan intilishlari birinchi navbatda o'qituvchilar tomonidan qo'llab-quvvatlanishi lozim. Bunday yondashuv natijasida talabalarning faol ijtimoiylashishlari va mikrosotsiumda mustahkam o'rin egallashlarini ta'minlovchi pedagogik vositalar va metodlarni izlash hamda tatbiq etish zaruriyatini kuchaytirmoqda. Ushbu masalalarninig yechimi sifatida talabalarning turistik faoliyatlarida ijtimoiy-madaniy omillarni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etmoqda [7].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07.02.2017 yildagi PF-4947-son "O'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida
3. I.A.Karimov "Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati" - Toshkent.Sharq nashriyoti
4. "Pedagogik mahorat'" darslik A.Xoliqov -Toshkent- 2011
5. "Umumiy pedagogika'" B.X.Xodjayev -Toshkent-2017
6. Barkamol avlod orzusi. -T.; "Sharq", 1999, 39-bet
7. "O'zbekistonda turizm rivojlanishining psixologik asoslari" mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi 2024 y 43 b

[7] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida